

**ATAJONOVA SHOHISTA SOATBOYEVNA**

*Magistr*

**Annatsiya:** *Bu maqolada xalq qo'shiqlarining tarixi, ularning turlari, qanday vaziyatlarda aytilishi haqidagi fikrlar misollar yordamida tahlil qilingan.*

**Annotation:** *In this article, the history of folk songs, their types, and ideas about what situations they are sung with the help of examples are analyzed.*

**Аннотация:** *В данной статье с помощью примеров анализируется история народных песен, их виды, а также представления о том, в каких ситуациях они поются.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, mavsum-marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar.*

**Key words:** *Folk songs, labor songs, seasonal-ritual songs, lyrical songs, historical songs.*

**Ключевые слова:** *Народные песни, трудовые песни, сезонно-обрядовые песни, лирические песни, исторические песни.*

Xalq og'zaki badiiy ijodining o'ziga xos turlaridan biri bu xalq qo'shiqlaridir. Xalq qo'shiqlari turmushni, kishilarning turmushdan olgan taassurotlarini, orzu-umidi, his-tuyg'ularini o'zida aks ettiradi. Qo'shiq turmushda ro'y bergan ijtimoiy hodisalarga hozirjavoblikdir. Qo'shiq san'atning insoniyat tomonidan eng oldin o'ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Rivoyat qilishlaricha, yer yuzidagi birinchi qo'shiq Hobil ismli o'g'li o'lganda Odam Ato tomonidan aytilgan marsiya bo'lgan ekan. Darhaqiqat, odamzod tug'ilgan kunidan boshlab alla eshitadi, o'lganda esa yig'i bilan kuzatiladi. Insonlar xalq qo'shiqlarni qayg'uli chog'da ham, shodu xurramlik paytida ham ijod etib, kuyga solib aytadi. O'zbek xalqi orasida "Kuygan ham qo'shiqchi, suygan ham qo'shiqchi" yoki "Suygan qo'shiqchi bo'lar, kuygan o'lanchi bo'lar" degan ta'birlar maqol sifatida yuritiladi.

Pol Lafarg qo‘shiqlarning tarixiy ahamiyatini uqtirib, shunday degan edi: “...mevali daraxtning shoxlarida ochilgan gul singari xalq og‘zidan chiqqan bu qo‘shiqlar yuksak tarixiy ahamiyatga ega ... Bu qo‘shiq xalq ko‘nglidagi qayg‘u- hasrat va shodliklarining yo‘ldoshi, uning bilim qomusidir...”[1, B.-21]

Haqiqatdan ham, qo‘shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta’sir etish qudratiga ega . Aksariyat qo‘shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an’analari, axloq normalari o‘z aksini topgan. Xalq qo‘shiqlarida voqelik garchi yakka shaxsning kechinmalari aks ettirilsa-da, biroq bu kechinmalari orqali ommaning, ko‘pchilikning his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Qo‘shiqlar xalq ma’naviyatining buyuk qudratini, mehnatkash omma irodasining bukilmaligini ifodalaydi. Kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka, do‘stlikka va vafodorlikka chorlaydi . Qo‘shiq qaysi tarixiy sharoitda, qanaqa munosabat bilan yaratilgani - uning ruhiyatidan bilinib turadi. O. Madayevning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kitobida xalq qo‘shiqlarini quyidagi turlarga bo‘lib tasnif qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- 1.Mehnat qo‘shiqlari
- 2.Mavsum-marosim qo‘shiqlari
- 3.Lirik (ishqiy) qo‘shiqlar
- 4.Tarixiy qo‘shiqlar .[2, B-74]

Xalq qo‘shiqlari orasida mehnat qo‘shiqlari alohida ahamiyatga ega. Mehnat qo‘shiqlari xalqimizning qo‘shiqchilik repertuarida alohida va mustaqil o‘rin tutadi Mehnat qo‘shiqlarining mazmun-mundarijasini, janr xususiyatlarini mehnat turlari va uni amalga oshirish jarayoni belgilaydi. Mehnat qo‘shiqlari o‘ziga xos ohangda so‘zsiz ijro etiladi. Mehnat qo‘shiqlari xalq she’riyatining eng qadimiy shakllaridan biridir. Dastlabki namunalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” kitobi orqali bizgacha yetib kelgan. Mehnat qo‘shiqlari ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan va taraqqiy topa borgan. Dastlabki mehnat qo‘shiqlari mehnat jarayonidagi muayyan harakat ritmiga mos keluvchi undov, xitob va nidolar xarakteridagi parchalardan iborat bo‘lgan. Keyinchalik, she’riy shaklga tushib, kuylana boshlagan. Xalqimiz

qadimdan oq chorvachilik bilan ham shug'ullanib kelgan. Bu kasb xalqimiz hayotida muhim o'rin egallagan. Xalq orasida ot boquvchini yilqiboqar, tuya boquvchini tuyaboqar, sigir va ho'kiz boquvchini podachi, qo'y-echki boquvchini qo'ychivon yoki cho'pon, tovuq boquvchini parrandaboqar deyish an'anaga aylangan. Ot, tuya, ho'kiz kabi jonivorlar hamisha chorvador va dehqonning mehnat jarayonidagi yaqin ko'makchisi bo'lgan. Ular orqali qadimgi ajdodlarimiz olis manzilni yaqin, mashaqqatli ishni oson qilishgan. Chorvachilikka daxldor bo'lgan qo'shiqlardan sog'im qo'shiqlari sog'iladigan hayvon turiga qarab turlanadi. Xalq orasida sigir sog'ish jarayonida kuylanadigan qo'shiqlar – "xo'sh-xo'sh" qo'shiqlari yoki "govmishim", qo'yni sog'ishda aytiladigan qo'shiqlar "turey-turey"lar, echki sog'ishda aytiladigan qo'shiqlar esa "churey-churey" yoki "churiyalar" deyilgan. Ular sog'ilayotgan hayvonni tinchlantirish, uni iydirish uchun kuylanadi. Chunki tinch va iyigan jonivordan ko'proq sut sog'ib olish mumkin. "Xo'sh-xo'sh"lar sigirni iyitishiga ishonilgan. Bunda sigir obdon maqtalib, ta'rif-tavsif qilinadi.

Tog' bag'rida o'ting bor, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Tepsinmagin jonivor, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Xumro-xumro suting bor, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Sening oting siyirdir, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Suvdan burning jiyirdir, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Seni sog'ib ichsin deb, xo'sh, xo'sh, xo'sh,  
Egam menga buyurdi, xo,,sh , xo,,sh , xo,,sh ,  
Oqil molim, xo'sh, xo'sh, xo'sh.

Xalq qo'shiqlaridan mavsum qo'shiqlari ham alohida o'ringa ega. Mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. Mavsum va marosimning kesishgan nuqtasini biz "Sel xotin"da ko'rishimiz mumkin. Aynan shu yig'in an'anaviy urf-odat ekanligi bilan marosim, bahorning aprel, may oylarida o'tkazilishi bilan esa mavsumga aloqador sanaladi.

Sel xotin, sel-sel xotin,

Yomg'ir yog'sin sel xotin.  
Dala-dashtda o't bo'lsin,  
Ichganimiz sut bo'lsin.  
Sel xotin, sel-sel xotin,  
Yomg'ir yog'sin mo'l bo'lsin.  
Qo'y-u qo'zi ko'p bo'lsin,  
Yurtimiz obod bo'lsin.

Xalq qo'shiqlarining yana bir yirik turi bu lirik qo'shiqlardir. Ular badiiy jihatdan yuksakligi, an'anaviyligi, ommaviyligi bilan alohida ajralib turadi. Ommaviy janr bo'lgan lirik qo'shiqlarning asosiy mazmunini ishq-muhabbat, insonning ruhiy olami va ichki kechinmalarini tasvirlash tashkil etadi:

Biringda ko'rdim bir pari,  
Kokillaring gul haydari.  
O'zing qizlarning sardori,  
Yor buncha zor etding meni,  
Kimlarga xor etding meni.

Lirik qo'shiqlar professional ijroga moslanmagan. Ularni istagan shaxs istalgan joyda ijro etib ketaverishi mumkin. Shu xususiyatiga ko'ra lirik qo'shiqlar mustaqil janr sifatida tan olinadi. Lekin lirik qo'shiqlarni, odatda, matnni yaxshi biluvchi, ovozi kuchli, yoqimli ovozga ega bo'lgan kishilar xalq o'rtasida kuylashi odat tusiga kirgan.

Xalq qo'shiqlari orasida yana bir qo'shiq turi borki, uni olimlar tarixiy qo'shiqlar deb nomlaydilar. Asosan, hikoyaviy xarakterga ega bo'lgan tarixiy qo'shiqlar o'zbek folklorshunosligida alohida janr sifatida e'tirof etiladi. Chunki uning o'ziga xos alohida belgilari, g'oyaviy yo'nalishi, mazmun-mundariyasi, taraqqiyot tarixi mavjud.

Demak, biz yuqoridagi izlanishlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin. Ya'ni, xalq qo'shiqlari xalq ma'naviyati, saviyasi, turmush darajasini belgilovchi o'lmas janrlardan biridir. Bundan tashqari xalq qo'shiqlari turmushda ro'y bergan ijtimoiy hodisalarga hozirjavoblikdir. Hozirga

qadar barhayotlikda davom etayotgan qo‘shiqlarning omma hayotidagi o‘rnini o‘quvchilarga misollar asosida tushuntirish, yoshlarni xalq qo‘shiqlariga muhabbat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari T., 1959. – B. 21.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T: Mumtoz so‘z, 2010 – B.74.
3. Qo‘shiqlar Qo‘shshayeva Sarvigul momo va To‘layeva Xosiyat momodan yozib olingan.